



I.B. MADRAXIMOVA

BOLALAR ADABIYOTI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MADRAXIMOVA INOBAT BAHODIROVNA

BOLALAR ADABIYOTI

*Oliy o‘quv yurtlarining
60110500-Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
talabalari uchun mo‘ljallangan*

«SARBON LLS»
TOSHKENT – 2024

UO‘K :

KBK :

Taqrizchilar:

M.O.Hamidova – Namangan davlat universiteti Pedagogika fakulteti "Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim" kafedrası professori, f.f.n.

Q.A.Mambetaliyev – CDPU “Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrası v.b. dotsenti, f.f.d

Ushbu o‘quv qo‘llanma bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga bolalar adabiyotining shakllanishi, uning ijodkorlari asarlarining yosh kitobxon o‘quvchi tarbiyasida tutgan o‘rni hamda o‘zbek va jahon (rus) bolalar adabiyoti haqida keng ma‘lumot berish, talabalarning og‘zaki va yozma nutqini yanada rivojlantirish va savodxonligini oshirish, takomillashtirish borasida amaliy malaka hosil qilishlarini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. O‘zbek bolalar adabiyotining nodir namunalari bilan tanishtirib, ularda ilgari surilgan g‘oyalar, qarashlar va bolalar ijodkorlari yuzasidan talabalarga nazariy bilimlar berish va amaliyotga tadbii qilishga o‘rgatish, o‘zbek va jahon bolalar adabiyotining rivojlanish davrlarini tahlil qilish, jahon va o‘zbek bolalar adabiyoti vakillarilarining ijodini o‘rganish, maktabgacha, maktab va katta maktab yoshidagi bolalar kitobxonligining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish maqsadida yaratildi.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 25 iyundagi 218-sonli buyrug‘iga asosan chop etishga ruxsat etilgan.

ISBN

MUNDARIJA

Kirish.....	4
1. Bolalar adabiyoti fan sifatida. Bolalar adabiyotining maqsad va vazifalari	7
2. Bolalar adabiyoti va bolalar folklori. Bolalar folklorining janr xususiyatlari va pandnomalar.....	13
3. Mumtoz adabiyot va bolalar kitobxonligi. Alisher Navoiy ijodida komil inson tarbiyasi	26
4. Gulhaniyning “Zarbulmasal” asarining bolalar adabiyotida tutgan oʻrni.....	45
5. Oʻzbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi va taraqqiyot xususiyatlari. Abdulla Avloniy va Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodi.....	50
6. Gʻofur Gʻulom va Sulton Joʻra hayoti va ijodiy faoliyati.....	81
7. Bolalar adabiyotida adreslilik. Maktabgacha taʼlim yoshdagi bolalar adabiyoti.....	93
8. Zafar Diyor va Shukr Saʼdulla ijodiy faoliyati	100
9. Mahmud Murod va Kavsar Turdiyeva ijodi	108
10. Maktab yoshidagi kichik bolalar adabiyoti. Quddus Muhammadiy va Poʻlat Moʻmin hayoti va ijodi	119
11. Dilshod Rajab va Abduraxmon Akbarov ijodi	127
12. Oʻrta va katta yoshdagi bolalar adabiyoti. Hakim Nazir va Farhod Musajon ijodiy faoliyati.....	138
13. Nosir Fozilov asarlarining gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari. Miraziz Aʼzam hayoti ijodi	148
14. Tursunboy Adashboyev va Qambar Ota ijodiy faoliyati	162
15. Anvar Obidjon “Dahshatli Meshpolvon” dostonida folklor anʼanalari. Hamza Imomberdiyev ijodi	176
16. Oʻsmirlar adabiyoti. Xudoyberdi Toʻxtaboyev va Safar Barnoyev ijodiy faoliyati	181
17. Latif Mahmudov va Normurod Norqobilov ijodi	185
18. Istiqlol davri bolalar adabiyoti. Rustam Nazar va Ziyod Komilov ijodiy faoliyati	188
19. Jahon bolalar adabiyoti. Aka-uka Grimmlar ertaklarida ilgari surilgan gʻoyalar	200
20. Xans Kristian Andersen va Charl Perro ijodi.....	205
21. Aleksandr Sergev Pushkin ertaklarida gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari.....	210
22. K. Chukovskiy va Marshak sheʼriyatining gʻoyaviy-badiiy xususiyati.....	217
Glossariy	225
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati	226

KIRISH

Bolalikdagi kechinmalar juda kuchli bo'lib, bolalar tevarak-atrofdagi hodisalarni to'g'ri tushunish uchun hali yetarlicha tajribaga ega emaslar. Bu holat, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaqqol ko'rinadi. Ular o'z his-tuyg'ularini to'g'ri ifoda etishda qiyinchilikka duch kelishlari mumkin, ammo bu taassurotlar ularning fe'l-atvorini shakllantirishga ta'sir qiladi. Shuning uchun bolalarni bolalar adabiyoti bilan tanishtirish, shaxsiy rivojlanish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, kattalarga nisbatan bolalarga kitobxonlik orqali ta'sir o'rganish oson, ammo o'ziga xos qiyinchiliklari ham bor. Bolalar juda sezgir va ta'sirchan bo'lishsa-da, ko'plab narsalarni hali bilmaydilar. Agar kattalar bolalarni kichikligidan ertaklar va afsonalar olamiga jalb qilsalar, bu ularda insoniy tuyg'ularni tarbiyalashga yordam beradi. Bu esa bolalarga bilim berishning muhim vosita ekanligini tushunishga ko'maklashadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy dunyosini shakllantirish va ularda ruhiy kechinmalarni tarbiyalash masalasi ham muhimdir. Albatta, bolalikdagi barcha muammolarni faqat kitobxonlik orqali hal qilib bo'lmaydi; bola tarbiyasi turli usul va yo'llar orqali ilmiy pedagogik tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Eng muhimi, har bir daqiqani qo'ldan boy bermasdan, bolalarni ajoyib kitoblar olamiga jalb etish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Keyinchalik, kitob bilan tanishgan bolalar kitob qahramonlarining his-tuyg'ularini his qilib, kitoblarisiz o'z hayotlarini tasavvur qila olmay qolishlari mumkin.

Kattalar biror kitobni bugun yoki bir yil o'tgach o'qib chiqishlari mumkin, ammo bolalik davrida vaqt hissi boshqacha his qilinadi. Har bir kun bolalar uchun yangi kashfiyotdir, va bolalikdagi tuyg'ular shu qadar kuchli bo'lishi mumkinki, dastlabki taassurotlar butun umr davomida esda qolishi mumkin.